

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

XORAZM VOHASI O'ZBEKLARINING BOLA TUG'ILISHI BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA UDUMLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Matkarimova Nilufar Maxsudovna

Xorazm viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi
Boshqarmasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini
muvoqiqlashtirish bo'limi metodisti
e-mail:matkarimovan16@gmail.com
Telefon raqam: +998999671443

Annotatsiya: Mazkur maqolada farzand – ota-onas uchun buyuk baxt, avlod davomchisi va tayanchi ekanligi, bola tug'ilganidan ma'lum bir yoshga yetguncha turli marosimlarni o'tkazish, urf va an'analar, homiladorlik, homilador ayolni e'zozlash, Zardushtiylik axloq kodeksi majmuida sog'likni saqlash haqidagi fikrlar, ayollarga homiladorlik davri va farzandli bo'lganidan so'ng alohida g'amxo'rlik qilish lozimligi, homiladorlikda amalga oshiriladigan urf-odatlar, tug'ruq bilan bog'liq urf-odatlar, bolani ilk bora cho'miltirish marosimida amalga oshiriladigan tadbirlar, chaqaloqni birinchi marta marosimiy cho'miltirish, tavallud topgan bolaning qulog'iga azon aytish, kichik chilla va katta chilla, bolaning tarbiyasi onaning homiladorligidanoq boshlanishi, oiladagi shart-sharoitlar, mehr-muhabbat, atrofdagilarning munosabatlari bolaning tarbiyasida juda katta rol o'yynashi, bolani doim yaxshi xulqlar va odoblar asosida tarbiyalash lozimligi kabi tushunchalar haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что ребенок является большим счастьем для родителей, продолжателем и опорой поколения, совершения различных обрядов от рождения до определенного возраста, обычаяв и традиций, беременности, почитания беременной женщины, зороастрийского этического кодекса, включающего представления об охране здоровья, о необходимости особой заботы о женщине во время беременности и после рождения ребенка, обычай, совершаемые во время беременности, обычай, связанные с рождением ребенка, рождением ребенка в первый раз, действия, проводимые во время обряда крещения, первого торжественное крещение младенца, пение призыва к молитве на ухо родившему ребенку, малая чилла и большая чилла, воспитание ребенка начинается с беременности матери, условий в семье, любви, отношений окружающих людей в воспитании ребенка даются сведения о таких понятиях, как важность играть очень большую роль, необходимость всегда воспитывать ребенка на основе хороших манер.

Annotation: In this article, the fact that a child is a great happiness for parents, the successor and support of the generation, performing various ceremonies from birth to a certain age, customs and traditions, pregnancy, honoring a pregnant woman, Zoroastrian code of ethics including ideas about health care, the need to take special care of women during pregnancy and after having a child, customs performed during pregnancy, customs related to childbirth, giving birth to a child for the first time activities carried out during the baptism ceremony, the first ceremonial baptism of the baby, singing the call to prayer in the ear of the born child, small chilla and big chilla, the education of the child starts from the mother's pregnancy, the conditions in the family, love, the relationships of the surrounding people in the education of the child information is given about concepts such as the importance of playing a very big role, the need to always raise a child based on good manners and manners.

Kalit so'zlar: Farzand, ota-onas, avlod davomchisi, urf va an'analar, oilaviy va mahalliy urf-odatlar, marosimlar, serfarzandlik, homiladorlik, Allohning ne'mati, "Avesto", zardushtiylik axloq kodeksi, yomon ko'zdan asrash, suv, tuz, shakar, eski paxsa devor tuprog'i, marosimiy cho'miltirish, gigienik poklash, azon aytish, kichik chilla, katta chilla, "chillali joy" chilla kunlari.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-ОКТАБР

ANDIJON, 2024

Ключевые слова: Ребенок, родители, потомки, обычаи и традиции, семейные и местные обычаи, обряды, отсовство, беременность, Боже благословение, “Авеста”, зороастрийский моральный кодекс, защита от сглаза, вода, соль, сахар, старая соломенная земля, ритуал крещение, гигиеническое очищение, призыв к молитве, малая чилла, большая чилла.

Supported conceptions: Child, parents, descendants, customs and traditions, family and local customs, rituals, parentage, pregnancy, God's blessing, "Avesta", Zoroastrian moral code, protection from the evil eye, water, salt ,sugar, old straw wall soil, ritual baptism, hygienic cleansing, call to prayer, small chilla, big chilla, "chilly place", chilla days.

Kirish va dolzarbliyi. Marosim inson hayotida moddiy va ma'naviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir xalqning boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgisi hisoblanadi. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi[1]. Boshqacha qilib aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

Xalqni ma'naviy-ruhiy tomonidan tarbiyalovchi vosita milliy urf-odat va an'analar bo'lib, jahon xalqlari va millatlarining o'z mentaliteti, milliyligi, qadriyatları, milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolishida dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Xorazm vohasi o'zbeklarining beshik to'yi kabi oilaviy marosimi va u bilan bog'liq urf-odatlar, shuningdek beshik to'yi haqidagi ma'lumotlar tarixiy va yozma manbalarda to'liq aks etmagan. Faqatgina ba'zi manbalar orqali uzuk-yuluq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy turmushi, oilaviy masalalari elchilar, sayyoohlar tomonidan yozib qoldirilgan esdaliklar, kundaliklarda, shuningdek, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan mustamlaka qilinishi davrida zabitlar tomonidan yozilgan hisobotlarda aks etgan bo'lsada, ularda marosimlarga e'tibor kamroq qaratilgan. Oilaviy marosimlar va u bilan bog'liq jarayonlar sovet davrida olib borilgan ilmiy ekspeditsiya materiallari va tadqiqtarda birmuncha tahlil etilgan, ammo, ushbu nashrlar o'sha davrning sotsialistik mafkurasini targ'ib qilishga ham yo'naltirilgan. Oilaviy marosimlar va u bilan bog'liq jarayonlar haqida bir qancha ilmiy va etnografik tadqiqtolar amalga oshirilgan, biroq ushbu masalalar muayyan hududlar misolida tadqiq etilgan. O'rta Osiyoning urf-odatlari, marosimlari haqida xorij tadqiqtchilari tomonidan yozilgan etnologik asarlar, risola va ilmiy maqolalarda umumiy yondoshilgan. Xorazm vohasi o'zbeklarining oilaviy marosimlari, ayniqsa beshik to'ylari alohida o'rganilmagan, oilaviy marosimlar tarixshunosligi mavzusi tadqiqt ob'ekti sifatida kompleks tadqiq etilmagan va etnolokal xususiyatlari tizimli tarzda ochib berilmagan.

Tadqiqt natijalari. Farzand – ota-onalarning buyuk baxt, chunki u avlod davomchisi va tayanchi. Uning tug'ilishi oilaning kattayu kichigiga birday quvonch bag'ishlaydi. Bola tug'ilganidan ma'lum bir yoshga yetguncha turli marosimlarni o'tkazish, to'y-tantanalar qilishdek an'analar ham dunyo xalqlarida keng tarqalgan. Bunday urf va an'analarining paydo bo'lishiga esa insonlarning o'z yaxshi kunlarini, quvonchlarini yaqinlari bilan baham ko'rish istagi sabab bo'lgan. O'zbek xalqida ham bu kabi oilaviy, mahalliy urf-odatlar, marosimlar ko'p.

Oilada bo'lg'usi onalarga, ularning homiladorlik davriga va shu bilan bog'liq jarayonlarga e'tibor qaratamiz. Avvalambor bo'lg'usi onalar, homiladorlik davri haqida so'z ochishdan oldin, o'zbek oilalarida o'g'il uylantirib to'y qiladigan xonodon egalari, yigitlar kelin qilib olinadigan qizlarni so'rab-surishtirib, oilasida, urug'-aymog'ida irsiy kasalliklarga chalinganlar bor-yo'qligiga alohida e'tibor berib, tanlangan qizning ota-onasi, nasl-nasabi, qarindosh-urug'lari haqida so'rab-surishtiriladi. Bundan tashqari qizning husnu jamoli, sog'ligi, odobu-tarbiyasiga, qolaversa, egallagan ma'lumoti va kasb-hunariga ham alohida e'tibor beriladi. Xalqimizda

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

“yetti avlodini surishtirdi”, deb bejizga aytishmagan. Va iloji boricha yaxshi oiladan qiz olishga intilganlar. Huddi shunday qizi bor oilalar ham o‘z qizlarini sog‘lom, mard, jasur, qo‘lida hunari bor, oilasini taminlay oladigan yaxshi oilaning o‘g‘liga uzatishni o‘zlarining burchlari deb bilganlar. Chunki, kelgusida oilaning baxtli va saodatli yashashi bo‘lajak kelin va kuyovning sog‘ligi, xulq-atvori, odobi hamda ularning farzandlari tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. “Avesto”da qayd qilinishicha, erkak kishi avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va baquvvat bo‘lmog‘i lozim, buning uchun u o‘z vaqtida to‘yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va burchlarini bajara olmaydi. Yeb-ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi yetmaydi. Er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, sog‘lom farzandlarni dunyoga keltira olmaydi[1]. ¹. Zardushtiylik axloq kodeksi majmuida sog‘likni saqlashga alohida o‘rin berilgan. Jumladan, ayollarga homiladorlik davri va farzandli bo‘lganidan so‘ng alohida g‘amxo‘rlik qilish lozimligi ta’kidlanadi².

Homiladorlikning dastlabki boshqorong‘ilik davrida ayolning u yoki bu taomni yeish istagi tug‘ilsa, albatta qondirilgan. Aks holda tug‘ilajak bola jismoniy yetishmovchiliklar, ya’ni bolaning qulog‘i yoki labining kemtik bo‘lishi, barmog‘i qiyshiq yoki boshqa nuqsonlar bilan tug‘ilishi mumkin, deb hisoblaganlar. Agar homilador ayol yegisi kelgan narsani yemasa, tug‘ilajak bolaning “ko‘zi ko‘k” bo‘ladi deb irim qilishgan³. Homilador ayolning yonidan yegulik olib ketayotganlar to‘xtab, balkim yegisi kelgandir deb, ma’lum qismini homilador ekansiz, deb berib ketish holatlari ham kuzatiladi. Homilador ayolga qiyin hazm bo‘ladigan xamirli taomlar, quyon va baliq go‘shtlarini iste’mol qilish taqiqlanadi. Hatto quyonga, shuningdek badbashara, xunuk, qo‘rqinchli narsalarga qarash ham ta’qiqlangan⁴. Bu narsalarni taqiqlash mazmunan taqlid (imitatsiya)dan iborat bo‘lib, ularning belgilari homilaga o‘tib qolishidan qo‘rqishgan. Shuningdek, homilador ayolning qorong‘ida yolg‘iz yurishi, bolasidan ajralgan yoki tug‘mas ayollarning izini bosishi, kabi hatti-harakatlar ma’n qilinadi. Zardushtiylarda homilani tushirish yoki nobud qilish qattiq qoralangan⁵. Homilaning qasddan nobud bo‘lishiga sababchi ayol jazolangan, agar bu fojiaga erkak aloqador bo‘lsa, uni qatl etish haqida hukm chiqarilgan. Darvoqe, bu o‘rinda shuni ham qayd etish joizki, aynan zardushtiylikda ona qornida homilaning shakllanish va uni jinsiy bo‘linish borasida ham birinchilardan bo‘lib ma’lumot berilgan. Jumladan, “Avesta”da yozilishicha, ayol qornidagi go‘dak to‘rt oyu o‘n kunlikda shakllanib, vujudiga ruh ingan bo‘ladi⁶. Avestada agarda erkak va ayol homilani tushirishga yoki nobud qilishga harakat qilishsa, uning gunohi er va ayol gardanidadir, deyiladi. Bundan ko‘rinadiki, homilani asrab-avaylashga qadimdan e’tibor kuchli bo‘lgan.

Olib borilgan so‘rovnomalarga asosan, Xorazm vohasida ayollar homiladorlik vaqtি va keyinchalik bola tug‘ilgandan so‘ng ham ma’lum tabularga amal qilish bilan birgalikda xonodon a’zolarining alohida g‘amxo‘rligida bo‘lganlar⁷. Xalqimizda, qolaversa, vohada homilani oldirish og‘ir gunoh sanalgan.

Homiladorlik bilan bog‘liq urf-odatlar o‘zbek xalqi etnik madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ushbu urf-odatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad onani va dunyoga keladigan bolani

¹ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Маковельский А.О. Авеста.-Баку, 1960.С.84.

² Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Маковельский А.О. Юқоридаги асар.- С. 101.

³ Dala ma’lumotlari. Ibragimova Anorgul. Ko’shko’pir tumani. 2024-yil.

⁴ Dala yozuvlari. Sadullaeva Guli. Xiva shahar. 2024-yil.

⁵ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Авесто. А.Маҳкам таржимаси..Б.154.

⁶ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Авесто. А.Маҳкам таржимаси..Б.154.

⁷ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Дала ёзувлари. Қирғизистон Республикаси Жалолобод вилояти Олабуқа тумани Мозор қишлоғи. 2004 йил.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

yomon ko‘zlardan asrash, sog‘lom va komil farzandni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Mamlakatimizning ko‘pgina joylarida chaqaloqni ko‘rgani kelgan mehmonlar chillali ayol bilan qo‘l berib ko‘rishmaydi. Ushbu tabu zamirida ko‘rgani kelgan odamlarning ziyonidan saqlanish g‘oyasi mujassamlashgan. Ona- bola yotgan joyga yovuz kuchlar, yomon ko‘zlardan himoya vositasi sifatida pichoq, ko‘zgu (oyna), qalampir, kulcha, turli-tuman diniy kitoblar qo‘ylgan. Chillali uyga bepusht ayollar, begona kishilar kiritilmagan, xonodon chirog‘i o‘chirilmagan va hokazo. O‘zbek oilalarida bolani ilk bora cho‘miltirish ham o‘ziga xos marosim tusini oladi. Ko‘p joylarda buning uchun maxsus suv tayyorlanadi, ya‘ni uy issiqligida iltilgan suvga tuz, shakar, tanga va eski paxsa devor tuprog‘i solinadi. So‘ngra chaqaloqni tog‘oraga o‘tqazilib, maxsus tayyorlangan suv uning ustidan avval o‘ng tarafidan so‘ngra esa chap tomonidan qirq tomchidan quyilgan. Suvga solingan ashylar xosiyati masalasiga e’tibor qaratsak, tuz gigienik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar hamda kasalliklarning oldini olishi bilan birga to‘kin-sochinlik va rizq-nasiba ramzi bo‘lgan⁸; shakar esa chaqaloq hayotining dastlabki lahzalarini shirin o‘tishiga qaratilgan magik niyatda qo‘shilgan; tanga bo‘lsa boylik, davlat ramzi bo‘lgan: eski paxsa devor tuprog‘i tanaga turli o‘simgalar va tuklar chiqishining oldini olgan. Chaqaloq marosimiy tarzda cho‘miltirilgandan so‘ng hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoq ostiga emas, balki biror bir mevali daraxt ostiga to‘kilgan. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, chaqaloqni bиринчи marta marosimiy cho‘miltirish uni nafaqat gigienik jihatdan poklanishini anglatgan, balki ramziy ma’noda uni bir olamdan ikkinchi olamga o‘tishi, ya‘ni uni “tabiat” olamidan insonlar dunyosiga o‘tishini ham anglatgan. Bola marosimiy tarzda yuvintirilgandan so‘nggina oilaning rasmiy a’zosi hisoblangan. O‘z navbatida shuni ham ta’kidlash lozimki, Xuf vodiyisi tojiklarida chaqaloq qirq kunlik bo‘lganiga qadar unda bir “hayvon ruhi” bo‘ladi va aynan qirqinchi kundan keyin uning o‘rnini “inson ruhi” egallaydi, degan qarash bo‘lgan⁹. Umuman olganda yuqorida ta’kidlangan mulohazalardan shunga amin bo‘lish mumkinki, O‘rtta Osiyoning ko‘plab xalqlarida, jumladan, o‘zbek xalqi oilaviy marosimlarida ham 40 soni tasodifiy emas, u bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o‘tish davri holatining miqdor-sifat ko‘rsatgichini anglatgan. Aynan qirq kundan keyin chaqaloq tabiat olamidan insonlar olamiga o‘tgan va ona marosimiy noplilikdan o‘zining oldingi holatiga qaytgan.¹⁰.

Jahon ilm ahli tomonidan tan olingen mashhur qomusiy alloma va mutafakkir Abu Ali Ibn Sino qator asarlarida, jumladan “Tabiat durdonasi”, “Oila tadbiri”, “Ishq risolasi”, “Mantiq risolasi”, “Axloq risolasi” kabilarda tabiatning turli hodisalari, ijtimoiy hayotning o‘ziga xos muammolari – inson maqomi baxt-saodatga erishishning vosita va yo‘llari, adolat, komil inson, shaxs va jamiyat, jamoani oqilona boshqarish, tabiat va inson to‘g‘risidagi g‘oyalar, ahamiyatga molik bo‘lib, go‘dak bola chillasi, uning enagasi parvarishi to‘g‘risida ming yil burun bugun ham ibrat bo‘ladigan risolalar yozib ketganlar. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, har bir odam ojiz yoki kasal bo‘lganda, keksaygan vaqtida unga qayg‘urishi uchun hamda vafotidan keyin nomini barhayot qilishi uchun farzandiga va xizmatchilariga muhtojdir. Bolaning tarbiyasi onaning homiladorligidanoq boshlanadi. Oiladagi shart-sharoitlar, mehr-muhabbat, atrofdagilarning munosabatlari bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. O‘z farzandi borasida otaning siyosati shundan iboratki, unga chiroyli ism qo‘yish, yaxshi enaga

⁸ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Бу тўғрисида батафсилроқ қаранг: Гершенович Р.С. О бытовой гигиене узбекского грудного ребёнка//Труды САГУ. Серия XXII. Этнография. Т., 1928. Вып.1. С.4. : Троицкая А.Л. Первых сорок дней ребёнка..С.352: Чвқр Л.А. Опыт анализа ..С.125.

⁹ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Андреев М.С. Таджики долины Хуф.(Верховье Амударья). Сталинабад,1953. Вып.1. С.71.

¹⁰ Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007

Фильstrup Ф.А. Из обрядовой жизни киргизов..С.93.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

tanlashdir. Bolani doim yaxshi xulqlar va odoblar asosida tarbiyalash lozim chunki yomon fe'l – atvorlar va nafratli odatlar bolani buzadi, ulardan bolani chetlashtirish lozim¹¹.

Xulosa. Urf-odat, an'ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir. Shuning uchun ham har bir xalqning turmushida uning o'ziga xos belgi va xususiyatlari mavjud. Lekin bu narsalar uzoq davr mobaynida vujudga keladi, davr o'tgan sari ularning ayrimlari turmush amaliyotidan tushib qoladi, ularning o'rniga yangilari paydo bo'lib kamol topib boradi. Kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi bilan ularning safi va sifati o'sib, o'zgarib boradi.

Urf-odatlar o'zbek xalqi etnik madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ushbu urf-odatlardan ko'zlangan asosiy maqsad onani va dunyoga keladigan bolani yomon ko'zlardan asrash, sog'lom va komil farzandni voyaga yetkazishdan iboratdir. Farzand – ota-onas uchun buyuk baxt, chunki u avlod davomchisi va tayanchi. Uning tug'ilishi oilaning kattayu kichigiga birday quvонch bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аширов, А. “Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари” Тошкент – 2007. Маковельский А.О. Авеста.-Баку, 1960.
2. Авесто. А.Маҳкам таржимаси..Б.154.
3. Андреев М.С. Таджики долины Хуф.(Верховье Амудары). Сталинабад,1953. Вып.1. С.71.
4. Фильstrup Ф.А. Из обрядовой жизни киргизов..С.93.
5. Мирзаева М.М.”Буюк мутафаккир абуали ибнСино ўйтларининг бугунги кунда бола тарбиясида аҳамияти” www.iupr.ru
6. Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – Б. 166.
7. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч, УрДУ ноширилик бўлими, 2018. – Б. 35.
8. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969.– С. 82.
9. Рузиева Р. Урф-одат ва анъаналар-миллий қадриятларни шакллантирадиган мезон сифатида. <https://cyberleninka.ru/article/n/urf-odat-va-ananalar-milliy-adriyatlarni-shakllantiradigan-mezon-sifatida>
10. Dala yozuvlari. Ibragimova Anorgul. Ko'shko'pir tumani. 2024-yil.
11. Dala yozuvlari. Sadullaeva Guli. Xiva shahar. 2024-yil.
12. Dala yozuvlari. Jumonova Go'zal. Yangibozor tuman. 2024-yil.
13. Dala yozuvlari. Siddiqova Ro'za. Xiva shahar. 2024-yil.
14. Dala yozuvlari. Allaberganova Zulfiya. Urganch tuman Chakkasholikor qishlog'i, 2024-yil.

¹¹ Мирзаева М.М.”Буюк мутафаккир абуали ибнСино ўйтларининг бугунги кунда бола тарбиясида аҳамияти” www.iupr.ru